

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Sh.A.Shoimov

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, soliq siyosati, davlat byudjeti daromadlari, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi.

THE MAIN DIRECTIONS OF IMPROVING THE TAX POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Sh.A.Shoimov


Master's student of Banking and Finance Academy of Uzbekistan

Annotation: this article examines the main directions of improving the tax policy in our country.

Keywords: tax, tax policy, state budget revenues, tax policy strategy, tax policy tactics.

Davlatning soliq siyosati mazmunan keng va boshqa iqtisodiy-moliyaviy siyosat turlari bilan bog‘langanligi uning murakkab jarayonlarni qamrab olishini ifodalaydi. Aslida soliq siyosatining yadrosini jamiyatda ishlab chiqilgan yalpi milliy (ichki) mahsulotning va yangidan yaratilgan qiymat-milliy daromadning qancha qismini davlat manfaatlari yo‘lida markazlashtirilgan pul fondlari (asosan davlat byudjeti)ga jalb qilish masalasini hal etish yotadi. Mana shu masalaning hal etilishiga qarab fiskal va byudjet siyosatining yo‘nalishlari aniqlanadi. Agar, davlat milliy daromadni qayta taqsimlashda iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash maqsadida soliq yukini haddan tashqari kamaytirsam, u holda davlat byudjet siyosatini ham shunga moslashtirish zarur bo‘ladi. O‘z navbatida byudjet daromad manbalarini bilan shug‘ullanuvchi fiskal siyosatning mazmuni ham shunga bog‘liq bo‘ladi. Agar davlat milliy daromadning byudjetga jalb qilinadigan qismini oshiradigan bo‘lsa, u ishlab chiqarish sohasidagi takror ishlab chiqarish jarayonining holatiga, u erdagi investitsion jarayonga ta‘sir qilishi bilan birgalikda monetar, fiskal va byudjet siyosatiga ham ta‘sir qiladi.

Har qanday siyosat maqsaddan kelib, chiqsada uning boshlanishi siyosatni ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi. Shunga ko‘ra har qaysi siyosat, jumladan, soliq siyosati ham ma‘lum bir tizimga asoslanadi.



1-rasm. Soliq siyosatining maqsadi va uni amalga oshirish jarayonlarining bog‘liqligi¹

Har qaysi davlat siyosati tarkibiy jihatdan strategik va taktik yo‘nalishlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, soliq siyosati soliqlarning xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Soliqlar tabiatan o‘zgaruvchan va moslashuvchan xarakterda amal qilishi uning strategiyasi va taktikasining o‘zgaruvchan bo‘lishiga ham ta’sir qiladi. Shu bilan birgalikda soliq strategiyasi ichki tuzilishi va mohiyatiga ko‘ra doimiy va o‘zgaruvchan shakllarda bo‘ladi.

Strategiya grekcha so‘z bo‘lib, "στρατηγία — qo‘mondonlik, boshqarish, harbiy san’ati" degan ma’noni berib, u dastlab, harbiy sohaga qo‘llanilib, keyinchalik davlat boshqaruvida va uning siyosatida qo‘llanila boshlagan. Siyosatda qo‘llanilishi esa ko‘pincha unga davriylik jihatdan yondoshiladi. Shu jihatdan olganda strategiya davlatning ma’lum bir soha(yo‘nalish)dagi faoliyatini tizimli boshqarishning uzoq muddatli davrga tegishli jarayonlarini aniqlash va uning yo‘nalishlarini belgilab olinishidir. Bu holat soliqlarga oid siyosatda ham mavjud bo‘ladi.

Soliq siyosati strategiyasining belgilanishi esa davlatning majburiy to‘lovlar borasidagi faoliyatining uzoq davrlarga oid xususiyatlarini aks ettiradi. Demak, soliq siyosati strategiyasi deganda davlatning jamiyat a’zolaridan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar borasidagi uzoq muddatga mo‘ljallangan faoliyatining umumiy yo‘nalishlari va xususiyatlarini aks ettiruvchi jarayon hisoblanadi. O‘zbekiston soliq tizimida ham soliq siyosati strategik va taktik yo‘nalishlari asosida amal qiladi. Ta’kidlanganidek, soliq siyosati strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining mazmunidan kelib chiqib, doimiy va o‘zgaruvchan strategiyaga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston soliq siyosatining bosh(doimiy) strategiyasi sifatida davlat byudjeti va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi manfaatlarning uyg‘unlashuvi oqilona soliq siyosati orqali ta’minlanadi va u uzoq vaqtni qamrab olib doimiy xarakterda bo‘ladi.

Soliq siyosatining tuzilishi va yo‘nalishi jihatdan muhim tarkibini soliq taktikalari tashkil etadi. Taktika ham kategoriya sifatida xuddi strategiya kabi grek tilidan olingan bo‘lib, "τακτικός-qo‘shinning tuzilishi, τάξις-tuzilish va joylashish" degan ma’nolarni berib, harbiy sohaga tegishli termin sifatida, keyinchalik esa davlatning har qanday siyosatining tuzilishi va yo‘nalishini ifodalashda qo‘llanila boshlangan. Soliq siyosatining taktikasi deganda esa soliq siyosati va uning strategiyasida maqsad qilib

¹ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan

belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida o‘zaro bog‘liq holda qo‘llaniladigan usul va vositalarning yig‘indisidir.

Soliq siyosati taktikalari amaliyotda qo‘llanilishi ularning samarali yoki samarasiz ekanligini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birgalikda taktik usullar yoki vositalar tuzilishi va mazmunan samarali bo‘lsada, ammo uni qo‘llashdagi xatoliklar, garchi usul yoki vositalar mazmunan ijobiy bo‘lsada, natija samarasiz ham bo‘lishi mumkin.


O‘zbekiston Respublikasining hozirgi soliq siyosatining muhim xususiyati shundaki, unda strategiyaning aniq belgilanishi, unga erishishning taktik yo‘nalishlarining ifodasi sifatida ilmiy asoslangan kontseptsianing ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilib borilayotganligidir. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida O‘zbekistonning soliq siyosatining strategiyasi sifatida soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish kabi muhim masalalar belgilab olingan bo‘lib, bular iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari sifatida belgilab olindi.



2-rasm. O‘zbekistonda yangi soliq kontseptsiasini joriy qilinishining asosiy omillari²

² O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlangan

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontsepsiyasining asosiy yo'nalishlari belgilab olindi:



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontsepsiyasining asosiy yo'nalishlari³

³ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Ushbu kontseptsiyada belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida mahalliy byudjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish, uy-joy-kommunal, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiyalash va texnik yangilash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarni amalga oshirishni so'zsiz ta'minlash yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishi va mas'uliyatini oshirish maqsadida mahalliy byudjetlar darajasida soliq-byudjet siyosatining ustuvor vazifalar etib quyidagilar: soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning aniq turlarini ularga biriktirib qo'yish orqali mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash; viloyatlar, shahar va tuman byudjetlarini subventsiyadan chiqarish, ularning yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga bo'lgan qaramligini bosqichma-bosqich qisqartirish, buning asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati organlari erkinligi va mas'uliyatini oshirish; mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish uchun tizimli asosda qo'shimcha rezervlarni aniqlab borish; deputatlik va jamoat nazoratini keng jalb qilgan holda, mahalliy byudjetlarni shakllantirishning shaffofligini va uning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash; mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlash hamda xarajatlarining tasdiqlangan parametrlarini o'z vaqtida, maqsadli moliyalashtirish, ijtimoiy soha ob'ektlari va infratuzilmani yanada rivojlantirish va tegishli darajada saqlab turishni ta'minlash ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, moliya va soliq organlarining javobgarligini kuchaytirish kabilarning belgilanishi va ularning ijrosining ta'minlanib borilishi hisobiga 2018 yilning o'zida soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda 5,5 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoldirildi.

Soliq kontseptsiyaning eng muhim e'tiborga olinishi zarur bo'lgan jihatlardan biri bu qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarining oshishi va uni hisoblashning mahsulotlar tannarxiga ta'siri masalasidir. Bu jarayon soliq to'lovchi, shu jumladan, keng qatlamli ist'emoatchilar uchun muhim va qiziqarli hisoblanadi. Shu boisdan mazkur jarayonning narx omiliga ta'sirini soddaroq shartli misol⁴ tariqasida tushuntirishga harakat qilinadi. Masalan, engilsanoat sohasida, paxta tolasi biz har zamon kiyadigan oddiy ko'ylak holatiga kelish uchun avval kalava ipga aylanadi, so'ng, kalava ipdan mato to'qiladi, so'ng mato bichilib, undan ko'ylak tikiladi. Demak mazkur jarayonda paxtani qayta ishlash korxonasi paxta tolasini kalava ip ishlab chiqaradigan korxonaga sotadi, kalava ip ishlab chiqaradigan korxonaga o'z mahsulotini to'qimachi korxonaga sotadi, to'qimachi korxonaga esa ishlab chiqargan matosini mazkur zanjirdagi oxirgi bo'g'ini hisoblangan ko'ylak tikuvchi korxonaga sotadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, hozirgi soliq siyosatimiz va uning huquqiy asosi bo'lgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksida insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash ko'zda tutilishi lozim bo'ladi.

Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 oktyabrda "Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5564-sonli Farmoni qabul qilinib, unga ko'ra, 2019 yil 1

⁴www.mf.uz. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yanvardan boshlab, ulgurji savdoni amalga oshirish faoliyatini litsenziyalash va savdo korxonalarini soliqqa tortishning maxsus tartibi; aksiz solig‘i solinadigan tovarlarning ayrim turlarini (avtomobil, o‘simlik yog‘i va boshqalar) sotishdan tushadigan tushumlar hisobini yuritish va undan foydalanishning maxsus tartibi; ko‘chma savdo uchun ruxsatnoma olish talabini; davlat ulushi 50 foizdan kam bo‘lgan korxonalar kontragentlari bilan o‘zaro munosabatlarda kechiktirilgan debitorlik qarzlari uchun sanksiyalarni; davlat ulushi 50 foizdan kam bo‘lgan korxonalar bilan shartnomalar bo‘yicha ichki bozorda oldindan 15 foiz to‘lovni amalga oshirishga doir talablari bekor qilindi. Yangi soliq tizimida norasmiy faoliyatni legalizatsiya qilish bo‘yicha bir qator yangiliklar kiritildi. Jumladan, foyda solig‘i 14 foizdan 12 foizga tushirilib, tadbirkor faqat daromad olsagina to‘lanishi belgilandi. Norasmiy bandlikni kamaytirish maqsadida ish haqidan 30 foizgacha olinadigan daromad solig‘i o‘rniga yagona 12 foizlik soliq turi kiritildi va 8 foizlik sug‘urta badali umuman bekor qilindi. Biznes elkasida og‘ir yuk bo‘lib kelayotgan yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi⁵. Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat‘iy belgilangan soliq stavkalari ham 30 foizga pasaytirildi. Bu imkoniyatlar tadbirkorlarning halol ishlashi, ko‘proq ish o‘rinlari yaratishiga xizmat qilib, ushbu engilliklar Prezidentimiz aytganidek, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo‘li bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda soliq tizimidagi dolzarb muammolardan biri bu fuqarolar tomonidan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashdan manfaatdorlik tuyg‘usini oshirish va shu orqali soliqlarni to‘lashdan qochmasdan o‘zlarining faol fuqarolik pozitsiyasini chinakkam namoyan etishiga erishish sanaladi.

Umumiy qilib aytganda, soliqlarni undirish jarayonida soliq to‘lovchilarning soliqlarning ob‘ektiv zarurligini to‘liq anglab etishi, ularning soliqlardan qochishi yoki to‘lashdan bo‘yin tovlashining o‘zining taqdiriga salbiy ta‘sir qilishini, soliqlar davlat ravnaqining moliyaviy asoslaridan biri ekanligi, soliqlarga farz sifatida qarash kabi holatlarning o‘rni katta bo‘lib, bu bevosita soliq to‘lovchilarning psixologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u esa soliq madaniyatining darajasini bildiradi. Aholining davlat oldidagi ijtimoiy qarzlari bilan birga soliqlar borasidagi qarzlarning muhimligini anglab etishi ularning iqtisodiy madaniyatining darajasini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Soliqlarni to‘lamaslik, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatda turmaslik va boshqa shu kabi soliq huquqbuzarlik hamda soliqqa oid jinoyatlar esa soliqlarning huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq holda bo‘lishini bildiradi.

Bir tomondan davlat tomonidan oqilona soliq siyosatining tashkil etilishi, bu hali bunday manfaatlarni uyg‘unlantira olmaydi, buning uchun soliq to‘lovchilarda yuqori darajadagi soliq madaniyati shakllanishi lozim bo‘ladi. Soliq siyosatida soliq imtiyozlari va preferentsiyalarni berish bilan birga soliq to‘lovchilar tomonidan bunday imtiyoz va preferentsiyalardan o‘rinli foydalangandagina bunday engilliklar samara beradi, aks holda esa byudjet manfaatlarga putur etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq to‘lovchilarga o‘ziga xos egoizm xususiyatlarining saqlanib qolishi, soliqlardan qarzdorlik, soliqlardan qochish holatlari uchrab turadi va bu ham byudjet manfaatlarga

⁵ www.mf.uz. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

zid keladi. Demak, soliq to‘lovchilar va byudjet manfaatlarining to‘g‘ri kesishuvi bu soliq qarzдорligi deyarli yo‘qotilganligi, soliq to‘lovchilarning soliq madaniyati yuqoriligi, byudjetdan berilayotgan subsidiyalarning samarasi yuqoriligini bildiradi, bu jarayon esa uzoq vaqt davomida erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Malikov T. Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
2. Malikov T, Kobulov K. Models of market economy formation and Interaction of fiscal policy. International Journal of Economic Growth and Environmental Issues- ISSN.:2321-6247.
3. Маликов ТС. Молия-хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма. Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2009:254-7.
4. Malikov T, Byudjet HN. O‘quv qo‘llanma. Toshkent:“Iqtisod-moliya. 2008;84.
5. N Khaydarov. International experience of the development of tourism in Uzbekistan. Интеграция. Эволюция. Устойчивость: пути развития социально-экономических систем. 2021
6. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
7. N Khaydarov. Agricultural Development in Uzbekistan: Agricultural Reforms versus Transboundary Water Issues. Developing Country Studies. ISSN, 2015
8. Юлдашева Н.В Бабаева Ш.С. Специфика организации государственной финансовой поддержки субъектов малого бизнеса в Республике Узбекистан. Интернаука, 2022
9. Ўроқов УЮ. Қишлоқ хўжалиги субъектларини солиқ имтиёзлари орқали рағбатлантириш. Иқтисодиёт ва таълим. 2015;12.
10. Yunusovich, O‘roqov Uchqun. "Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg‘armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.“." Science and Education” Scientific Journal/ISSN (2022): 2181-0842.
11. Urokov UY, Tursunova ZA. Actual issues in the management of external debt. Science and Education. 2022;3(12):1023-9.
12. U Yu O‘roqov, NM Anvarov. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022
13. Уроков У. Узбекистон Республикасининг бюджет кодекси: мохияти, ахамияти ва афзалликлари.". Молия" журнали. 2014.
14. Мамаджанов И, Топаров Қ, Ўроқов У, Файбуллаев О. Ўрта муддатли бюджет. Наманган шаҳар бюджети мисолида. Услубий қўлланма.
15. Yunusovich, O‘roqov Uchqun, Moyliyev Murod Baxtiyorovich, and Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li. "Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari.“." Science and Education” Scientific Journal/ISSN (2022): 2181-0842.
16. Ўроқов, У., И. Иргашев, and О. Файбуллаев. "Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет." (2022).

17. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
18. U O'roqov, ZAQ Tursunova. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko'rsatish kafolat jamg'armasining o'rni - Science and Education, 2022
19. Уроков УЮ. К, ишлок хужалиги субъектларини солиқ имтиёзлари орқали рафбатлантириш. Иктисодиёт ва таълим. 2015;12.
20. УЮ Ўроқов. Давлат харидлари тизимини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. Ustozlar uchun, 2024
21. U Yu O'roqov. Davlat xaridi - O'quv qo'llanma. T.:«Nihol print» OK, 2022
22. Urokov, U. Y. (2018). Public procurement system: yesterday and today." . Market, money and credit" magazine, 8.
23. U Urokov. Peculiarities of implementation of public procurement in Uzbekistan through the agreement procedure. Journal of economics and business management, 2023
24. U Urokov. The importance of procurement models in the effective organization of public procurement. - IMRAS, 2023